

Xalqaro aloqalar istiqboli

2018 yil 24 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Belarusiya Milliy fanlar akademiyasi Prezidiumi a'zosi, Fizika, matematika va informatika bo'limi ilmiy kotibi, akademik Orlovich Valentin Antonovich, Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i, dotsent Podkopayev Vladimir Viktorovich, Belarusiya Respublikasi Fan va texnologiyalar davlat qo'mitasi raisi o'rinbosari, f.-m.f.d. Shyerbakov Sergey Sergeevich tashrif buyurishdi. Mehmonlarni O'zR FA bosh ilmiy kotibi, vitse-prezidentlari kutib olishdi va ikki davlat ilm-fani sohasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan fikr almashishdi. Yangi hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.

